QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.06.2020.FM.70.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYALARI INSTITUTI

MAMATOV TO‘LQIN YUSUPOVICH

ARALASH UZLUKSIZLIK MODULI BILAN ANIQLANGAN KO‘P O‘ZGARUVCHILI FUNKSIYALAR FAZOSIDA VOLTER O‘RAMASI MA’NOSIDAGI BA’ZI OPERATORLAR

01.01.01 – Matematik analiz

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Qarshi – 2023

UDK: 517.983.2

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

Mamatov To‘lqin Yusupovich
Aralash uzluksizlik moduli bilan aniqlangan ko‘p o‘zgaruvchili funksiyalar fazosida Volter o‘ramasi ma’nosidagi ba’zi operatorlar.. 3

Маматов Тулкин Юсупович
Некоторые операторы типа вольтерровской свертки в пространствах функций нескольких переменных, определяемых смешанным модулем непрерывности ……………………………………………………..…….. 19

Mamatov Tulkin Yusupovich
Some operators of the volterra convolution type in spaces of functions of several variables defined by the mixed modulus of continuity…...................... 35

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works ……………………………………………….………… 39

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.06.2020.FM.70.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYALARI INSTITUTI

MAMATOV TO‘LQIN YUSUPOVICH

ARALASH UZLUKSIZLIK MODULI BILAN ANIQLANGAN KO‘P O‘ZGARUVCHILI FUNKSIYALAR FAZOSIDA VOLTER O‘RAMASI MA’NOSIDAGI BA’ZI OPERATORLAR

01.01.01 – Matematik analiz

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Qarshi – 2023

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/FM704 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro muhandislik-texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.qarshidu.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim tarmog‘ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Yaxshiboyev Maxmadyor Umirovich** fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor
Rasmiy opponentlar:	**Rasulov To‘lqin Husenovich** fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor
	Kuliev Komil Danaboyevich fizika-matematika fanlari doktori (DSc), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Navoiy davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.06.2020.FM.70.04 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil “____” ___________ soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 180103, Qarshi sh., Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 225-34-13, faks: (+998 75) 221-00-56, e-mail: qarshidu@umail.uz). Qarshi davlat universiteti 2-binosi, 202-xona.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 180103, Qarshi sh., Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 225-34-13, faks: (+998 75) 221-00-56, e-mail: qarshidu@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil “_______” ____________ kuni tarqatildi
(2023 yil “_____” ______________ dagi ______-raqamli reyestr bayonnomasi).

B.A.Shoimqulov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
f.-m.f.d., professor

Sh.D.Nodirov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
f.-m.f.f.d. (PhD)

A.A.Imomov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash huzuridagi
ilmiy seminar raisi,
f.-m.f.d. (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda maxsus (singulyar) integral operatorlar nazariyasi zamonaviy matematik fizika, mexanika, kompleks funksiyalar nazariyasining turli masalalarini yechishda samarali qo‘llanilmoqda. Fazolardagi integral operatorlar nazariyasining eng muhim muammolaridan biri obraz silliqligining proobrazining silliqligiga bog‘liqligini aniqlash dolzarb hisoblanadi. Funksiyaning silliqlilik xossalarini juda nozik tushunishning usullaridan biri uzluksizlik modulining xatti-harakati nuqtayi nazaridan shakllantirilgan umumlashgan Hölder xossalari tushunchasidan foydalanish muhim masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Dunyoda kasr tartibli integro-differensial operatorlarning turli fazolarda xossalarini o‘rganishga doir imliy izlanishlar olib borilmoqda. Shu jumladan, Volter o‘ramasi ma’nosidagi ba’zi operatorlarning ko‘p o‘zagruvchili funksiyalarning Hölder fazolarida xossalarini o‘rganish va ularni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘p o‘zgaruvchilarga kengaytirish (yoyish) eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Umumlashgan Hölder fazolarida funksiyalarni kasr tartibli integro-differensiallashni o‘rganishning muhim bosqichi bu Zigmund ma’nosidagi baholarni olishga, ya’ni asl funksiyaning uzluksizlik moduli orqali kasr tartibli integrallarning (kasr tartibli differensiallarning) uzluksizlik modulini baholashga alohida e’tibor berilmoqda.

Mamlakatimizda fundamental fanlarning ilmiy va amaliy tatbiqlariga ega bo‘lgan mexanika, kimyo texnologiya va fizikaning dolzarb yo‘nalishlarga e’tibor kuchaytirildi. Jumladan, kasr tartibli integrallash va kasr tartibli differensiallashning dolzarb masalalarini yechishga alohida e’tibor qaratildi. Bu yo‘nalishning rivojlanishi natijasida matematik fizika, suyuqliklar mexanikasi, turli fizik hodisalarni matematik modellashtirish va chiziqli bo‘lmagan xususiy differensial tenglamalarni yechish bilan bog‘liq masalalarni yechishda sezilarli natijalarga erishilmoqda. “Funksional analiz, matematik analiz, differensial tenglamalar, matematik fizika, ehtimollar nazariyasi va dinamik tizimlar nazariyasi fanlarining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy izlanishlar olib borish matematika fanining asosiy vazifalar va faoliyat yo‘nalishlari” etib belgilandi[1]. Qaror ijrosini ta’minlashda ko‘p o‘zgaruvchili umumlashgan Hölder fazolarida kasr tartibli ko‘p o‘lchovli integral operatorlarning xossalarini o‘rganish va rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g’risidagi”gi Farmoni, 2018-yil 27-apreldagi PQ-3682-son “Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliyotga tatbiq qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

[1]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4708-sonli Qarori.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ko‘p ilmiy ishlar uzluksizlik moduliga ega bo‘lgan bir o‘zgaruvchili funksiyalarning Hölder fazolarida kasr tartibli integral-differensiallash operatorlarining xatti-harakati haqidagi masalalariga bag‘ishlangandir. Ilk aniq natijalar G.H.Hardi va Dj.E.Littlvudga tegishlidir. Keyinchalik Hardi-Littlvudlarning bu natijalari turli yo‘nalishlarda umumlashtirilgan.

B.S.Rubin va B.G.Vakulovlar bu natijalarni vaznli holda umumlashtirdi. Keyinchalik N.K.Karapetyants, L.D.Shankishvili Hölder fazosida Hardi-Littlvud teoremasining qisqacha isbotini keltirdilar.

Umumlashgan Hölder fazolaridagi funksiyalarni integral-differensiallashni o‘rganishning eng muhim bosqichi Zigmund ma’nosidagi baholari olish bilan bog‘liq, ya’ni berilgan funksiyaning uzluksizlik moduli yordamida kasr tartibli integral (kasr tartibli hosila) ning uzluksizlik modulini baholashdan iborat. Bunday masalalar quyidagi olimlarning ishlarida o‘rganilgan.

X.M.Murdayev va S.G.Samkolar o‘z ishlarida darajali vaznli umumlashgan Hölder fazolarida kasr tartibli integro-differensial operatorlaning akslantishlarini o‘rganib, xarakteristikalari Bari-Stechkin sinfidan bo‘lgan va umumlashgan Hölder fazolarida bu operatorlarning akslantirishi izomorfligni ko‘rsatdilar. N.K.Karapetyants, M.X.Murdayev va A.Ya.Yakubovlar integral uzluksizlik modulining xatti-harakati bilan aniqlangan umumlashgan Hölder fazolarida kasr tartibli integro-differensial operatorlarni o‘rganganlar. S.G.Samko va Z.U.Mussalayeva ishlari Hölder va umumlashgan Hölder sinflarida kasr tartibli integral va hosilalarni o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, bunda Volter o‘ramasi ma’nosidagi integral operator umumiy vazn va yadrolarga ega. N.K.Karapetyants va Z.U.Mussalayevalarning ilmiy tadqiqot ishlari Veyl (davriy) kasr tartibli integral-differensiallashga bag‘ishlangandir. E.S.Kochurov va B.G.Vakulovlarning ishlarida parametrga bog‘liq xarakteristikaga ega bo‘lgan, umumlashgan Hölder fazolarda va darajali vaznli o‘zgaruvchan ko‘rsatkichli Hölder fazolarda kasr tartibli integral va o‘zgaruvchan kasr tartibli differensial operatorlarining ko‘chirilishi va chegaralanganligini o‘rganishga bag‘ishlangan. Ushbu ishlarda funksiya uchun tartibni aniqlaydigan shartlar topilgan bo‘lib, buning uchun Hardi va Littlvud teoremalarining o‘xshashlari o‘rinli bo‘ladi. H.A.H.Salem, M.Chicon o‘z ishlarida umumlashgan Hölder fazosida o‘rtacha kasr tartibli integral operatorlarni o‘rganganlar.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro muhandislik-texnologiya instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 2018-2022-yillarga mo‘ljallangan MA.01.2018-raqamli “Kasr tartibli integro-differensial operatorlar nazariyasi” ilmiy-tadqiqot yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ham vaznsiz ham vaznli hollarda aralash uzluksizik moduli bilan aniqlangan ko‘p o‘zgaruvchili funksiyalar Hölder fazosida aralash kasr tartibli integral operatorlarning xossalarini o‘rganishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

oddiy va aralash Hölder shartlari bilan aniqlangan ikki oʻzgaruvchili funksiyalarning vaznli va vaznsiz Hölder fazolarini akslantiruvchi Riman-Liuvill aralash kasr tartibli integral operatorning chegaralanganligi haqidagi teoremalarni isbotlash;

aralash uzluksizlik moduli bilan aniqlangan ikki oʻzgaruvchili Riman-Liuvill aralash kasr tartibli integrallarning vaznli va vaznsiz Zigmund ma’nosidagi baholarni olish hamda bu baholardan foydalanib, aralash uzluksizlik moduli bilan aniqlangan ikki oʻzgaruvchili funksiyalarning vaznli va vaznsiz umumlashgan Hölder fazolarini akslantiruvchi Riman-Liuvill aralash kasr tartibli integral operatorning chegaralanganligi haqidagi teoremalarni isbotlash;

aralash uzluksizlik moduli bilan aniqlangan ikki oʻzgaruvchili Volter oʻramasi ma’nosidagi aralash integral uchun vaznli va vaznsiz Zigmund ma’nosidagi baholarni olish;

Zigmund ma’nosidagi baholardan foydalanib, aralash uzluksizik moduli bilan aniqlangan ikki oʻzgaruvchili funksiyalarning vaznli va vaznsiz umumlashgan Hölder fazolarini akslantiruvchi Volter oʻramasi ma’nosidagi aralash integral operatorning chegaralanganligi haqidagi teoremalarni isbotlash.

Tadqiqotning ob’yekti sifatida aralash uzluksizlik moduli bilan aniqlangan ikki oʻzgaruvchi funksiyalarning umumlashgan Hölder fazolarida Riman-Liuvill aralash kasr tartibli integral operatori va Volter oʻramasi ma’nosidagi aralash integral operatorlar olingan.

Tadqiqotning predmetini turli funksional fazolarda integral operatorlar nazariyasini yanada rivojlantirishga yordam beradigan yangi tasdiqlarni olish va oʻzaro munosabatlarning bogʻliqligini oʻrganish tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida integral operatorlar usullari, koʻp oʻzgaruvchili funksiyalar nazariyasi va kasr tartibli integrallar nazariyasidan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bir oʻzgaruvchili funksiyalarning vaznli va vazinsiz Hölder fazolarini akslantituvchi Riman-Liuvill kasr tartibli integral operatorning chegaralanganligi haqidagi teoremalarni isbotlash usullaridan foydalangan holda oddiy va aralash Hölder shartlari bilan aniqlangan ikki oʻzgaruvchili funksiyalarning vaznli va vaznsiz Hölder fazolarini akslantiruvchi Riman-Liuvill aralash kasr tartibli integral operatorning chegaralanganligi haqidagi teoremalar isbotlangan;

uzluksizlik moduli bilan aniqlangan bir oʻzgaruvchili Riman-Liuvill kasr tartibli va Volter oʻramasi ma’nosidagi integrallarning vaznli va vaznsiz Zigmund ma’nosidagi baholarini olish usullaridan foydalanib, aralash uzluksizlik moduli bilan aniqlangan ikki oʻzgaruvchili Riman-Liuvill aralash kasr tartibli integral va Volter oʻramasi ma’nosidagi aralash integrallarnig vaznli va vaznsiz Zigmund ma’nosidagi baholari olingan;

Zigmund ma’nosidagi baholardan foydalanib, aralash uzluksizlik moduli bilan aniqlangan ikki oʻzgaruvchili funksiyalarning vaznli va vaznsiz umumlashgan Hölder fazolarini akslantiruvchi Riman-Liuvill aralash kasr tartibli integral operatorning chegaralanganligi haqidagi teoremalar isbotlangan;

Zigmund ma’nosidagi baholardan foydalanib, aralash uzluksizlik moduli bilan aniqlangan ikki o‘zgaruvchili funksiyalarning vaznli va vaznsiz umumlashgan Hölder fazolarini akslantiruvchi Volter o‘ramasi ma’nosidagi aralash integral operatorning chegaralanganligi haqidagi teoremalar isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ikki o‘lchovli Volter va Abel integral tenglamalarini yechishda Riman-Liuvill aralash kasr tartibli integrallari qo‘llanilgan;

Volter o‘ramasi ma’nosidagi aralash integral operatorning xossalaridan qovushqoqlikni hisobga oluvchi Volter tipidagi relaksatsiya yadro parametrlarini hisoblashda foydalanilgan;

aralash kasr tartibli Riman-Liuvill integrallarining Zigmund ma’nosidagi baholaridan qovushqoqlikni ifodalovchi Robotnov yadrosidagi kasr tartibli integrallarni hisoblashda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi matematik analizdagi xosmas integrallarni baholashning ma’lum usullaridan foydalanilganligi hamda matematik mulohazalarning va isbotlarning qat’iyligi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, dissertatsiya natijalari nufuzli ilmiy jurnallarda, xususan, yuqori impakt-faktorli jurnallarda nashr etilgan va ilmiy seminarlarda ishdan olingan natijalar muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, olingan natijalardan ko‘p o‘zgaruvchili funksiyalarning umumlashgan Hölder fazolarida Volter o‘ramasi ma’nosidagi integral operatorlarning yanada rivojlanishida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan ilmiy natijalar kasr tartibli chiziqli va chiziqli bo‘lmagan differensial tenglamalar va Abelning integral tenglamalarini yechishda qo‘llash mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Dissertatsiya tadqiqoti jarayonida olingan ilmiy natijalar quyidagi yo‘nalishlarda amaliyotga joriy qilingan:

oddiy va aralash Hölder shartlari bilan aniqlanadigan ikki o‘zgaruvchili funksiyalarning vaznli va vaznsiz Hölder fazolarini akslantiruvchi Riman-Liuvill aralash kasr tartibli integral operator chegaralanganligi haqidagi teoremalardan yetakchi xorijiy jurnallarda foydalanilgan (Advances in Applied Mathematics and Approximation Theory, 2013, vol 41, 21-56; Intelligent Mathematics II: Applied Mathematics and Approximation Theory, 2016, vol 441, 1-13; Computational Analysis, 2016, vol. 155, 1-17; Intelligent Comparisons: Analytic Inequalities, 2016, vol. 609, 623-659; Abstract Fractional Monotone Approximation, Theory and Applications, 2022, vol 411, 121-144; Abstract Fractional Monotone Approximation, Theory and Applications, 2022, vol 411, 73-96; Acta Mathematica Universitatis Comenianae, 2022, vol.91, no.3, 1-19). Natijada ikki o‘zgaruvchili kasr tartibli integral operatorlarni tadqiq qilishda foydalanilgan. Ilmiy natijaning qo‘llanilishi qaralayotgan operatorlar xossalarini isbotlashga imkon bergan;

aralash uzluksizlik moduli bilan aniqlangan ikki o‘zgaruvchili funksiyalarning ham vaznli va ham vaznsiz umumlashgan Hölder fazolarini akslantiruvchi Volter o‘ramasi ma’nosidagi aralash integral operator chegaralanganligi haqidagi teoremalarda asosan qovushqoqlikni hisobga oluvchi Volter tipidagi relaksatsiya yadro parametrlarini hisoblashda OT-F4-01 “Qovushqoq suyuqlik oquvchi koʻp qatlamli kompozit quvurlar egri chiziqli boʻlaklarining harorat va dinamik yuklanishlar ta’sirida chiziqli boʻlmagan dinamik kuchlanish-deformatsiya holatini oʻrganish usullarini ishlab chiqish va nazariyasini rivojlantirish” mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (Toshkent kimyo-texnologiya institutining 2022-yil 26-dekabrdagi 1/01-3193-son ma’lumotnomasi). Natijada foydalanilgan yadrodagi qovushqoqlik xususiyatini ifodalovchi parametrlarning aniqlik darajasi 10% gacha oshishiga imkon bergan;

aralash kasr tartibli Riman-Liuvill integrallarining Zigmund ma’nosidagi baholaridan qovushqoqlikni ifodalovchi Robotnov yadrosidagi kasr tartibli integrallarni hisoblashda F-4-40 raqamli “Suyuqlik oquvchi yer osti egri chiziqli quvurning tashqi kuchlari ta’siridagi kuchlanish-deformatsiyalar holatini tadqiq qilish nazariyasini rivojlantirish va hisoblash usularini ishlab chiqish” mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (Buxoro muhandislik-texnologiya institutining 2022-yil 13-dekabrdagi 02/01-87-2218-son ma’lumotnomasi). Natijada mavjud modellar orqali hisoblashga nisbatan aniqlik 10% gacha oshishiga imkon bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya tadqiqoti mavzusi boʻyicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining falsafa doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta, jumladan 4 tasi xorijiy va 3 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 103 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan, mavzu boʻyicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, muammoning oʻrganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar roʻyxati va dissertatsiya tuzilishi boʻyicha ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Kasr tartibli integrallar nazariyasidan zarur boʻlgan ma’lumotlar**” deb nomlangan boʻlib, Hölder fazolarida kasr tartibli integral operatorlar uchun zarur boʻlgan dastlabki ma’lumotlar va belgilashlar keltirilgan.

1.1 paragrafi yordamchi xususiyatga ega bo‘lib, bir o‘zgaruvchili funksiya uchun ma’lum bo‘lgan ta’riflar, belgilashlar, yordamchi ma’lumotlar va kasr tartibli integral operatorning asosiy tasdiqlari bayon qilingan.

1-ta’rif. *Agar* $\omega(\sigma)$ $(0<\sigma\le l_0=b-a)$ *funksiya quyidagi*

1) $\omega(0)=0$;

2) $\omega(\sigma)$ σ *ning kamaymaydigan funksiyasi*;

3) $\omega(\sigma)$ *yarim additiv, ya’ni* $\omega(\sigma_1+\sigma_2)\le\omega(\sigma_1)+\omega(\sigma_2)$;

4) $\omega(\sigma)$ $[0,b-a]$ *da* σ *ning uzluksiz funksiyasi*

shartlarni qanoatantirsa, u holda bu funksiya uzluksiz moduli deyiladi.

2-ta’rif. *Agar* $(0,b-a]$ *oraliqda aniqlangan* $\omega(\sigma)$ *funksiya quyidagi shartlarni qanoatlantirsa,*

a) $\omega(\sigma)$ *uzluksizlik modul funksiyasi*;

b) $\int\limits_0^\sigma \frac{\omega(t)}{t}dt\le C_1\omega(\sigma)$;

c) $\sigma\int\limits_\sigma^{b-a}\frac{\omega(t)}{t^2}dt\le C_1\omega(\sigma)$;

d) $\omega'(\sigma)\sim\frac{\omega(\sigma)}{\sigma}$,

u holda bu funksiya Φ^1 *sinfga qarashli deyiladi.*

3-ta’rif. *Agar* $[0,l]$ *oraliqda aniqlangan* $\psi(x)$ *quyidagi shartlarni qanoatlantirsa*:

1) $\psi(x)$ - $[0,l]$ *kesmada uzluksiz, bundan tashqari* $\psi(0)=0$ *va* $x>0$ *da* $\psi(x)>0$;

2) $\frac{\psi(x)}{x^\mu}$ - *deyarli kamayuvchi*;

3) $\psi(x)$ - *deyarli o‘suvchi*;

4) $x^*=\max(x,y)$ *bo‘lsa, shunday o‘zgarmas son* C_1 *mavjudki*

$$\left|\frac{\psi(x)-\psi(y)}{x-y}\right|\le C_1\frac{\psi(x^*)}{x^*} \text{ o‘rinli,}$$

u holda bu funksiya W_μ, $\mu>0$ *sinfga qarashli deyiladi.*

4-ta’rif. *Agar* $[0,l]$ *oraliqda aniqlangan* $k(x)$ *musbat funksiya quyidagi shartlarni qanoatlantirsa*

1) $k(x)\ne 0$, $x^\lambda k(x)$ - *deyarli o‘suvchi va* $x^\lambda k(x)\big|_{x=0}=0$;

2) *shunday* $\varepsilon>0, 0<\varepsilon<\lambda$ *son mavjudki, bunda* $x^{\lambda-\varepsilon}k(x)$ – *deyarli kamayuvchi*;

3) $x^*=\max(x,y)$ *bo‘lsa, shunday o‘zgarmas son* C_1 *mavjudki*

$$\left|\frac{k(x)-k(y)}{x-y}\right|\le C_1\frac{k(x^*)}{x^*} \text{ o‘rinli,}$$

u holda bu funksiya V_λ, $\lambda>0$ *sinfga qarashli deyiladi.*

1.2 paragrafda ikki o‘zgaruvchili funksiya uchun asosiy natijalarni bayon qilishda zarur bo‘ladigan boshlang‘ich ma’lumotlar, belgilashlar, ta’riflar va tasdiqlar keltirilgan.

R^2 da $\varphi(x_1, x_2)$ uzuksiz funksiya aniqlangan bo‘lsin. Quyida kelgusida zarur bo‘ladigan belgilashlarni kiritamiz:

$$\left(\overset{1,0}{\Delta}_{h_1}\varphi\right)(x_1,x_2)=\varphi(x_1+h_1,x_2)-\varphi(x_1,x_2),$$

$$\left(\overset{0,1}{\Delta}_{h_2}\varphi\right)(x_1,x_2)=\varphi(x_1,x_2+h_2)-\varphi(x_1,x_2),$$

$$\left(\overset{1,1}{\Delta}_{h_1,h_2}\varphi\right)(x_1,x_2)=\left(\overset{1,0}{\Delta}_{h_1}\left(\overset{0,1}{\Delta}_{h_2}\varphi\right)\right)(x_1,x_2)=$$

$$=\varphi(x_1+h_1,x_2+h_2)-\varphi(x_1+h_1,x_2)-\varphi(x_1,x_2+h_2)+\varphi(x_1,x_2).$$

Yuqoridagi belgilashlarga asosan, ushbu

$$\varphi(x_1+h_1,x_2+h_2)=\left(\overset{1,1}{\Delta}_{h_1,h_2}\varphi\right)(x_1,x_2)+\left(\overset{1,0}{\Delta}_{h_1}\varphi\right)(x_1,x_2)+\left(\overset{0,1}{\Delta}_{h_2}\varphi\right)(x_1,x_2)+\varphi(x_1,x_2).$$

ayniyat o‘rinli bo‘ladi.

Ushbu $\varphi(x_1,x_2)$ funksiya $Q=\left\{\,(x_1,x_2):\, a_1\le x_1\le b_1,\ a_2\le x_2\le b_2\right\}$ to‘g‘ri to‘rtburchakda aniqlangan bo‘lsin.

5-ta’rif. $\lambda_i\in(0,1],\, i=1,2$ *bo‘lsin. Agar barcha* $(x'_1,\, x'_2),\,(x''_1,\ x''_2)\in Q$ *uchun ushbu* $\left|\varphi(x'_1,x'_2)-\varphi(x''_1,x''_2)\right|\le C_1\left|x'_1-x''_1\right|^{\lambda_1}+C_2\left|x'_2-x''_2\right|^{\lambda_2}$ *shart bajarilsa, u holda* $\varphi(x_1,x_2)\in H^{\lambda_1,\lambda_2}(Q)$ *Hölder fazosiga qarashli deyiladi, bunda* C_1, C_2 *o‘zgarmaslar.*

Q to‘g‘ri to‘rtburchakning chegaraviy nuqtalarida nolga teng bo‘luvchi $H^{\lambda_1,\lambda_2}(Q)$ funksiyalar fazosining qism fazosini $H_0^{\lambda_1,\lambda_2}(Q)$ orqali belgilaymiz.

6-ta’rif. *Agar* $\varphi(x_1,x_2)\in H^{\lambda_1,\lambda_2}(Q)$ *va* $\left|\left(\overset{1,1}{\Delta}_{h_1,h_2}\varphi\right)(x_1,x_2)\right|\le C_{12}\left|h_1\right|^{\lambda_1}\left|h_2\right|^{\lambda_2}$ *bo‘lsa, u holda* $\varphi(x_1,x_2)\in\tilde{H}^{\lambda_1,\lambda_2}(Q)$ *deyiladi, bunda* $\lambda_i\in(0,1],\ i=1,2$.

Ushbu $\tilde{H}^{\lambda_1,\lambda_2}(Q)$ sinfni aralash Hölder sinfi deb ataymiz.

Agar $\varphi(x_1,x_2)\in\tilde{H}^{\lambda_1,\lambda_2}(Q)$ *va* $\varphi(x_1,x_2)\big|_{x_i=a_i}\equiv\varphi(x_1,x_2)\big|_{x_i=b_i}\equiv 0,\ i=1,2$ *bo‘lsa, u holda* $\varphi(x_1,x_2)\in\tilde{H}_0^{\lambda_1,\lambda_2}(Q)$ *deyiladi.*

7-**ta’rif.** R^2 *da aniqlangan* $\rho(x_1,x_2)-$ *manfiymas funksiya bo‘lsin.* $\rho(x_1,x_2)\varphi(x_1,x_2)\in\tilde{H}^{\lambda_1,\lambda_2}(Q)$ *ni qanoatlantiruvchi* $\varphi(x_1,x_2)$ *funksiyalar sinfini* $\tilde{H}^{\lambda_1,\lambda_2}(\rho)=\tilde{H}^{\lambda_1,\lambda_2}(Q;\,\rho)$ *orqali belgilaymiz. Bu sinf vaznli aralash Hölder fazosi deb ataladi.*

Q to‘g‘ri to‘rtburchakning chegaraviy nuqtalarida nolga teng bo‘luvchi $\varphi(x_1,x_2)\rho(x_1,x_2)$ funksiyalar $\widetilde{H}^{\lambda}=\widetilde{H}^{\lambda_1,\lambda_2}(Q)$ fazosining qism fazosini $\widetilde{H}_0^{\lambda}=\widetilde{H}_0^{\lambda_1,\lambda_2}(Q)$ orqali belgilaymiz.

Quyidagi belgilashlarni kiritamiz:

1) birinchi o‘zgaruvchi bo‘yicha birinchi tartibli xususiy uzluksizlik moduli

$$\overset{1,0}{\omega}_{\varphi}(\sigma_1,0):=\sup_{x_2\in[a_2,b_2]}\sup_{0<h_1\le\sigma_1}\left|\left(\overset{1,0}{\Delta}_{h_1}\varphi\right)(x_1,x_2)\right|,\ 0<\sigma_1\le b_1-a_1;$$

2) ikkinchi o‘zgaruvchi bo‘yicha birinchi tartibli xususiy uzluksizlik moduli

$$\overset{0,1}{\omega}_{\varphi}(0,\sigma_2):=\sup_{x_1\in[a_1,b_1]}\sup_{0<h_2\le\sigma_2}\left|\left(\overset{0,1}{\Delta}_{h_2}\varphi\right)(x_1,x_2)\right|,\ 0<\sigma_2\le b_2-a_2;$$

3) 1.1- tartibli aralash uzluksizlik moduli

$$\overset{1,1}{\omega}_{\varphi}(\sigma_1,\sigma_2):=\sup_{x_i\in[a_i,b_i]}\sup_{0<h_i\le\sigma_i}\left|\left(\overset{1,1}{\Delta}_{h_1,h_2}\varphi\right)(x_1,x_2)\right|,\ 0<\sigma_i\le b_i-a_i,\ i=1,2.$$

8-ta’rif. *Ikki o‘zgaruvchili funksiya $\omega(\sigma_1,\sigma_2)$ quyidagi shartlarni qanoatlantirsa*

1) *tayinlangan σ_2 uchun σ_1 o‘zgaruvchi bo‘yicha $\omega(\sigma_1,\sigma_2)\in\Phi^1$;*

2) *tayinlangan σ_1 uchun σ_2 o‘zgaruvchi bo‘yicha $\omega(\sigma_1,\sigma_2)\in\Phi^1$,*

u holda bu funksiya $\Phi^{1,1}(Q)$ sinfga qarashli deyiladi.

Bu sinfni ikki o‘zgaruvchili uzluksiz funksiyalarning birinchi tartibli aralash uzluksizlik modullari sinfi deb ataymiz.

9-ta’rif. *Agar quyidagi*

1) $\omega_1(\sigma_1),\omega_2(\sigma_2)\in\Phi^1$ va $\omega_{1,1}(\sigma_1,\sigma_2)\in\Phi^{1,1}$;

2) $\omega_{1,1}(\sigma_1,\sigma_2)\le C_{12}\min\{\omega_1(\sigma_1),\omega_2(\sigma_2)\}$, *bu yerda $C_{12}-$ $\omega_1,\omega_2,\omega_{1,1}$ larga bog‘liq emas, shartlarni qanoatlantiradigan $\varpi=(\omega_1,\omega_2,\omega_{1,1})$ uchliklar to‘plamini $\Phi(Q)$ orqali belgilaymiz.*

10-ta’rif. *$\omega(\sigma_1,\sigma_2)\in\Phi(Q)$ bo‘lsin. Agar $\varphi(x_1,x_2)$ funksiya Q to‘plamda aniqlangan va*

$$\sup_{0<\sigma_1\le b_1-a_1}\frac{\overset{1,0}{\omega}_{\varphi}(\sigma_1,0)}{\omega_1(\sigma_1)}<\infty,\quad \sup_{0<\sigma_2\le b_2-a_2}\frac{\overset{0,1}{\omega}_{\varphi}(0,\sigma_2)}{\omega_2(\sigma_2)}<\infty$$

shartlarni qanoatlantirsa, u holda bu funksiya $H^{(\omega_1,\omega_2)}(Q)=H^{\omega}(Q)$ sinfga tegishli deyiladi.

Ushbu $\omega_1(\sigma_1)$ va $\omega_2(\sigma_2)$ funksiyalarni $H^{(\omega_1,\omega_2)}(Q)$ umumlashgan Hölder fazoning xarakteristik funksiyalari deb ataymiz.

11-ta'rif. *Agar* $\varphi(x_1, x_2) \in H^{\omega_1, \omega_2}(Q)$ *bo'lib,*

$$\sup_{\substack{0<\sigma_i \le b_i - a_i \\ i=1,2}} \frac{\overset{1,1}{\omega_\varphi}(\sigma_1, \sigma_2)}{\omega_{1,1}(\sigma_1, \sigma_2)} < \infty$$

shartni qanoatlantirsa, u holda $\varphi(x_1, x_2)$ *funksiya* $\tilde{H}^{(\omega_1, \omega_2, \omega_{1,1})}(Q) = \tilde{H}^{\varpi}(Q)$ *sinfga tegishli deyiladi.*

Ushbu $\omega_{1,1}(\sigma_1, \sigma_2)$ *funksiyani* $\tilde{H}^{(\omega_1, \omega_2, \omega_{1,1})}(Q)$ *aralash umumlashgan Hölder fazosining xarakteristik funksiyalari deb ataymiz.*

$(\omega_1, \omega_2, \omega_{1,1}) \in \Phi$ xarakteristikalar bilan Q to'rtburchakning chegaraviy nuqtalarida nolga aylanadigan, $\tilde{H}^{\varpi}(Q) = \tilde{H}^{(\omega_1, \omega_2, \omega_{1,1})}(Q)$ fazodan olingan $\varphi(x_1, x_2)$ funksiyalar qism fazosini $\tilde{H}_0^{\varpi}(Q) = \tilde{H}_0^{(\omega_1, \omega_2, \omega_{1,1})}(Q)$ orqali belgilamiz.

12-ta'rif. *Agar* $\rho(x_1, x_2)$ *nomanfiy vazn funksiyasi bo'lib,* $\rho(x_1, x_2)\varphi(x_1, x_2) \in \tilde{H}^{(\omega_1, \omega_2, \omega_{1,1})}(Q)$ *sinfga qarashli bo'lsa, u holda* $\varphi(x_1, x_2)$ *funksiya* $\tilde{H}^{(\omega_1, \omega_2, \omega_{1,1})}(\rho) = \tilde{H}^{\varpi}(Q;\rho)$ *fazoga tegishli deyiladi.*

Shunday $\rho(x_1, x_2)\varphi(x_1, x_2)\big|_{x_i=a_i} = \rho(x_1, x_2)\varphi(x_1, x_2)\big|_{x_i=b_i} \equiv 0,\ i = 1,2$ shartni qanoatlantiruvchi $\tilde{H}^{(\omega_1, \omega_2, \omega_{1,1})}(\rho) = \tilde{H}^{\varpi}(Q;\rho)$ fazodan olingan funksiyalar fazosini $\tilde{H}_0^{(\omega_1, \omega_2, \omega_{1,1})}(\rho) = \tilde{H}_0^{\varpi}(Q;\rho)$ orqali belgilaymiz.

1.3 paragrafda ikki va ko'p o'zgaruvchili kasr tartibli integral operatorlarning ta'riflari va ko'rinishlari keltirilgan. Ikki o'zgaruvchili funksiyalar uchun aniqlangan quyidagi

$$\left(I_{a_1+, a_2+}^{\alpha_1, \alpha_2}\varphi\right)(x_1, x_2) = \frac{1}{\Gamma(\alpha_1)\Gamma(\alpha_2)} \int_{a_1}^{x_1}\int_{a_2}^{x_2} \frac{\varphi(t_1, t_2)dt_1 dt_2}{(x_1 - t_1)^{1-\alpha_1}(x_2 - t_2)^{1-\alpha_2}},\ x_i > a_i$$

$(\alpha_1, \alpha_2)\ \alpha_i > 0, i = 1,2$ aralash kasr tartbili Riman-Liuvill hamda aralash Volter o'ramasi ma'nosidagi

$$\left(\tilde{K}\varphi\right)(x_1, x_2) = \int_{a_1}^{x_1}\int_{a_2}^{x_2} k(x_1 - t_1)k(x_2 - t_2)\varphi(t_1, t_2)dt_1 dt_2,\ a_i < x_i,\ i = 1,2$$

integrallarni qaraymiz.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "Ikki o'zgaruvchili **Hölder fazolarida aralash kasr tartibli integral operatorlar"** deb nomlangan. Ushbu bobda biz har bir o'zgaruvchisiga nisbatan turli tartibli Hölder hamda aralash uzluksizlik moduli bilan aniqlangan umumlashgan Hölder ikki o'zgaruvchili funksiyalar fazolarida Riman-Liuvill aralash kasr tartibli integral operatorini tadqiq qilamiz. Hölder fazolari har bir o'zgaruvchi bo'yicha xususiy orttirmalarda hamda aralash orttirmalarda aniqlanadi, asosiy qiziqish har ikkala holda ham aralash kasr tartibli integral uchun aralash orttirmani baholash muhim bo'lib, bunda integralning zichligi Hölder sinflariga tegishlidir.

Dissertatsiyada biz faqat ajraladigan vazn funksiyalarni qaraymiz.

2.1 paragrafda ikki o‘zgaruvchili funksiyalarning oddiy va aralash Hölder shartlari bilan aniqlangan vaznli va vaznsiz Hölder fazolarida Riman-Liuvill aralash kasr tartibli integral operatorning akslantirishi o‘rganilgan.

1-teorema. *Agar* $0 \le \lambda_i \le 1,\ 0 < \alpha_i < 1$ *va* $\lambda_i + \alpha_i < 1, i = 1,2$ *bo‘lsa, u holda* $H_0^{\lambda_1,\lambda_2}(Q)$ *fazoni* $H_0^{\lambda_1+\alpha_1,\lambda_2+\alpha_2}(Q)$ *fazoga akslantiruvchi* $I_{a_1+,a_2+}^{\alpha_1,\alpha_2}$ *aralash kasr tartibli integral operator chegaralangandir.*

2-teorema. *Agar* $0 \le \lambda_i \le 1,\ \lambda_i + \alpha_i < 1,\ 0 < \alpha_i < 1,\ i = 1,2$ *bo‘lsa, u holda* $\widetilde{H}_0^{\lambda_1,\lambda_2}(Q)$ *fazoni* $\widetilde{H}_0^{\lambda_1+\alpha_1,\lambda_2+\alpha_2}(Q)$ *fazoga akslantiruvchi* $I_{a_1+,a_2+}^{\alpha_1,\alpha_2}$ *aralash kasr tartibli integral operator chegaralangan bo‘ladi.*

Vazn funksiyasi $\rho(x_1,x_2) = (x_1 - a_1)^{\mu_1}(x_2 - a_2)^{\mu_2}$, $\mu_i < \lambda_i + 1,\ i = 1,2$ ko‘rinishda bo‘lsin.

3-teorema. *Agar* $0 < \lambda_i < 1,\ 0 < \alpha_i < 1$ *va* $\lambda_i + \alpha_i < 1,\ i = 1,2$ *bo‘lsa, u holda* $\widetilde{H}_0^{\lambda_1,\lambda_2}(\rho)$ *fazoni* $\widetilde{H}_0^{\lambda_1+\alpha_1,\lambda_2+\alpha_2}(\rho)$ *fazoga akslantiruvchi* $I_{a_1+,a_2+}^{\alpha_1,\alpha_2}$ *aralash kasr tartibli integral operator chegaralangandir.*

2.2 paragrafda ikki o‘zgaruvchili funksiyalar uchun aralash uzluksizlik modullarda aralash kasr tartibli integrallarning vaznli va vaznsiz Zigmund ma’nosidagi baholari olingan.

4-teorema. *Faraz qilaylik* $\varphi(x_1,x_2) \in C(Q)$ *va* $\varphi(x_1, x_2)|_{x_i=a_i} = 0,\ i = 1,2$ *bo‘lsin, u holda* $f(x_1, x_2) = \left(I_{a_1+,a_2+}^{\alpha_1,\alpha_2}\varphi\right)(x_1, x_2)$ *aralash kasr tartibli integral uchun quyidagi Zigmund ma’nosidagi baholar o‘rinli:*

$$\overset{1,0}{\omega}(f;\, h_1, 0) \le C_1 h_1 \int_{h_1}^{b_1-a_1} \frac{\overset{1,1}{\omega}(\varphi;\ t_1, b_2 - a_2)}{t_1^{2-\alpha_1}} dt_1 ,$$

$$\overset{0,1}{\omega}(f;\, 0,\, h_2) \le C_2 h_2 \int_{h_2}^{b_2-a_2} \frac{\overset{1,1}{\omega}(\varphi;\, b_1 - a_1,\, t_2)}{t_2^{2-\alpha_2}} dt_2 ,$$

$$\overset{1,1}{\omega}(f;\, h_1, h_2) \le C_{12} h_1 h_2 \int_{h_1}^{b_1-a_1} \int_{h_2}^{b_2-a_2} \frac{\overset{1,1}{\omega}(\varphi;\ t_1,\ t_2)}{t_1^{2-\alpha_1} t_2^{2-\alpha_2}} dt_1 dt_2 .$$

5-teorema. $\rho(x_1,x_2) = (x_1 - a_1)^{\mu_1}(x_2 - a_2)^{\mu_2},\ 0 \le \mu_i < 2 - \alpha_i\ \ i = 1,2$ *bo‘lsin. Agar* $\varphi(x_1,x_2)$ *funksiya ushbu*

1) $\varphi_0(x_1,x_2) = \rho(x_1,x_2)\varphi(x_1,x_2) \in C(Q)$ *va* $\varphi_0(x_1,x_2)|_{x_i=a_i} = 0,\ i = 1,2;$

2) $\gamma_i = \max\{1,\mu_i\},\ \ i = 1,2$ *da* $\displaystyle\int_0^{b_1-a_1}\int_0^{b_2-a_2} \frac{\overset{1,1}{\omega}(\varphi_0;t_1,t_2)}{t_1^{\gamma_1} t_2^{\gamma_2}} dt_1 dt_2 < \infty$ *shartlarni*

qanoatlantirsa, u holda $f(x_1,x_2) = \left(I_{a_1+,a_2+}^{\alpha_1,\alpha_2}\varphi\right)(x_1,x_2)$ *aralash kasr tartibli integral uchun*

$$\overset{1,0}{\omega}(\rho f;h_1,0)\le C_1\left[h_1^{\alpha_1+\gamma_1-1}\int\limits_0^{h_1}\frac{\overset{1,1}{\omega}(\rho\varphi;t_1,b_2-a_2)}{t_1^{\gamma_1}}dt_1+h_1\int\limits_{h_1}^{b_1-a_1}\frac{\overset{1,1}{\omega}(\rho\varphi;t_1,b_2-a_2)}{t_1^{2-\alpha_1}}dt_1\right],$$

$$\overset{0,1}{\omega}(\rho f;0,h_2)\le C_2\left[h_2^{\alpha_2+\gamma_2-1}\int\limits_0^{h_2}\frac{\overset{1,1}{\omega}(\rho\varphi;b_1-a_1,t_2)}{t_2^{\gamma_2}}dt_2+h_2\int\limits_{h_2}^{b_2-a_2}\frac{\overset{1,1}{\omega}(\rho\varphi;\,b_1-a_1,\,t_2)}{t_2^{2-\alpha_2}}dt_2\right],$$

$$\overset{1,1}{\omega}(\rho f;h_1,h_2)\le C_{12}\left[h_1^{\alpha_1+\gamma_1-1}\,h_2^{\alpha_2+\gamma_2-1}\int\limits_0^{h_1}\int\limits_0^{h_2}\frac{\overset{1,1}{\omega}(\rho\varphi;\,t_1,\,t_2)}{t_1^{\gamma_1}t_2^{\gamma_2}}dt_1dt_2+\right.$$

$$+h_1h_2^{\alpha_2+\gamma_2-1}\int\limits_{h_1}^{b_1-a_1}\int\limits_0^{h_2}\frac{\overset{1,1}{\omega}(\rho\varphi;t_1,t_2)}{t_1^{2-\alpha_1}t_2^{\gamma_2}}dt_1dt_2+h_1^{\alpha_1+\gamma_1-1}h_2\int\limits_0^{h_1}\int\limits_{h_2}^{b_2-a_2}\frac{\overset{1,1}{\omega}(\rho\varphi;\;t_1,t_2)}{t_1^{\gamma_1}t_2^{2-\alpha_2}}dt_1dt_2+$$

$$\left.+h_1h_2\int\limits_{h_1}^{b_1-a_1}\int\limits_{h_2}^{b_2-a_2}\frac{\overset{1,1}{\omega}(\rho\varphi;\;t_1,t_2)}{t_1^{2-\alpha_1}t_2^{2-\alpha_2}}\right]$$

Zigmund ma'nosidagi baholar o'rinli bo'ladi.

2.3 paragrafida aralash uzluksizlik moduli bilan aniqlangan ikki o'zgaruvchili funksiyaning vaznli va vaznsiz umumlashgan Hölder fazolarida Riman-Liuvill aralash kasr tartibli integral operatorning akslantirishi o'rganilgan.

6-teorema. $0<\alpha_i<1,\ i=1,\ 2$ *bo'lib, quyidagi*

1) $\displaystyle\int\limits_0^{x_1}\int\limits_0^{x_2}\frac{\omega(t_1,\,t_2)}{t_1t_2}dt_1dt_2\le C_{12}\omega(x_1,\,x_2),$

2) $\displaystyle\int\limits_{x_1}^{b_1-a_1}\int\limits_{x_2}^{b_2-a_2}\left(\frac{x_1}{t_1}\right)^{1-\alpha_1}\left(\frac{x_2}{t_2}\right)^{1-\alpha_2}\frac{\omega(t_1,\,t_2)}{t_1t_2}dt_1dt_2\le C_{12}\omega(x_1,\,x_2).$

shartlar bajarilsa, u holda $\tilde{H}_0^{\varpi}$ *fazoni* $\tilde{H}_0^{\varpi_\alpha}$ *fazoga* $\varpi_\alpha(x)=x_1^{\alpha_1}x_2^{\alpha_2}\omega(x_1,\,x_2)$ *xarakteristikasi bilan akslantiruvchi* $I_{a_1+,a_2+}^{\alpha_1,\alpha_2}$ *aralash kasr tartibli integral operator chegaralangan bo'ladi.*

7-teorema. $\rho(x_1,\,x_2)=(x_1-a_1)^{\mu_1}(x_2-a_2)^{\mu_2},\ \gamma_i=\max(\mu_i-1,0),\ \ \mu_i<2-\alpha_i,$ $0<\alpha_i<1,\ i=1,2$ *bo'lsin. Agar quyidagi*

1) $\displaystyle\int\limits_0^{x_1}\int\limits_0^{x_2}\left(\frac{x_1}{t_1}\right)^{\gamma_1}\left(\frac{x_2}{t_2}\right)^{\gamma_2}\frac{\omega(t_1,\,t_2)}{t_1t_2}dt_1dt_2\le C_{12}\omega(x_1,\,x_2),$

2) $\displaystyle\int\limits_{x_1}^{b_1-a_1}\int\limits_{x_2}^{b_2-a_2}\left(\frac{x_1}{t_1}\right)^{1-\alpha_1}\left(\frac{x_2}{t_2}\right)^{1-\alpha_2}\frac{\omega(t_1,t_2)}{t_1t_2}dt_1dt_2\le C_{12}\omega(x_1,\,x_2)$

shartlar bajarilsa, u holda $\tilde{H}_0^{\varpi}(\rho)$ *fazoni* $\tilde{H}_0^{\varpi_\alpha}(\rho)$ *fazoga* $\varpi_\alpha(x)=x_1^{\alpha_1}x_2^{\alpha_2}\omega(x_1,\,x_2)$ *xarakteristikasi bilan akslantiruvchi* $I_{a_1+,a_2+}^{\alpha_1,\alpha_2}$ *aralash kasr tartibli integral operator chegaralangandir.*

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Ikki o‘zgaruvchili umumlashgan Hölder fazolarida Volter o‘ramasi ma’nosidagi aralash integral operatorlari**” deb nomlangan. Ikkinchi bobda biz yadro va vazn funksiyasi darajali funksiyalar bo‘lgan holni o‘rgandik. Endi ushbu bobda biz ixtiyoriy yadro va vazn funksiyalar bo‘lgan holni qaraymiz.

3.1 paragrafda ikki o‘zgaruvchili funksiyalar aralash uzluksizlik moduli bilan aniqlanganda Volter o‘ramasi ma’nosidagi aralash integrallarning vaznli va vaznsiz Zigmund ma’nosidagi baholari olingan.

8-teorema. $k(x_i)\in V_{\lambda_i}$, $0<\lambda_i<1, \varphi(x_1, x_2)\big|_{x_i=a_i}=0$ *va* $\varphi(x_1,x_2)\in C(Q)$ $i=1, 2,$ *bo‘lsa, u holda quyidagi Zigmund ma’nosidagi baholar o‘rinli:*

$$\overset{1,0}{\omega}\left(\tilde{K}\varphi;\, h_1, 0\right)\le C_1\left[\,h_1 k(h_1)\overset{1,1}{\omega}\left(\varphi;\, h_1,\, b_2-a_2\right)+h_1\int\limits_{h_1}^{b_1-a_1}\frac{\overset{1,1}{\omega}\left(\varphi;\, t_1,\, b_2-a_2\right)}{t_1}k(t_1)dt_1\right],$$

$$\overset{0,1}{\omega}\left(\tilde{K}\varphi;0, h_2\right)\le C_2\left[\,h_2 k(h_2)\overset{1,1}{\omega}\left(\varphi; b_1-a_1, h_2\right)+h_2\int\limits_{h_2}^{b_2-a_2}\frac{\overset{1,1}{\omega}\left(\varphi;\, b_1-a_1,\, t_2\right)}{t_2}k(t_2)dt_2\right],$$

$$\overset{1,1}{\omega}\left(\tilde{K}\varphi;\, h_1,\, h_2\right)\le C_{12}\left[\,h_1 k(h_1)h_2 k(h_2)\overset{1,1}{\omega}\left(\varphi;\, h_1,\, h_2\right)+\right.$$

$$+h_1h_2k(h_2)\int\limits_{h_1}^{b_1-a_1}\frac{\overset{1,1}{\omega}\left(\varphi;t_1,b_2-a_2\right)}{t_1}k(t_1)dt_1+h_1h_2k(h_1)\int\limits_{h_2}^{b_2-a_2}\frac{\overset{1,1}{\omega}\left(\varphi;b_1-a_1,t_2\right)}{t_2}k(t_2)dt_2+$$

$$\left.+h_1h_2\int\limits_{h_1}^{b_1-a_1}\int\limits_{h_2}^{b_2-a_2}\frac{\overset{1,1}{\omega}\left(\varphi;\, t_1,\, t_2\right)}{t_1t_2}k(t_1)k(t_2)dt_1dt_2\right].$$

9-teorema. $k(x_i)\in V_{\lambda_i}, 0<\lambda_i<1,\, i=1{,}2$ *va* $\rho(x_1,x_2)=\psi(x_1-a_1)\psi(x_2-a_2)$ *bo‘lsin, bunda* $\psi(x_i)\in W_{\mu_i}$, $0<\mu_i<1+\lambda_i$, $i=1{,}2$. *Agar quyidagi*

1) $\varphi_0(x_1, x_2)=\rho(x_1, x_2)\varphi(x_1,x_2)\in C(Q)$ *va* $\varphi_0(x_1, x_2)\big|_{x_i=a_i}=0, i=1{,}2;$

2) $\displaystyle\int\limits_0^{b_1-a_1}\int\limits_0^{b_2-a_2}\frac{\overset{1,1}{\omega}\left(\varphi_0;\, t_1, t_2\right)}{t_1^{\delta_1}t_2^{\delta_2}}dt_1dt_2<\infty$, bu yerda $\delta_i=\max(1,\, \mu_i)$, $i=1{,}2$ shartlar

bajarilsa, u holda

$$\overset{1,0}{\omega}\left(\rho\tilde{K}\varphi;\, h_1,\, 0\right)\le C_1\left[h_1^{\delta_1}k(h_1)\int\limits_0^{h_1}\frac{\overset{1,1}{\omega}\left(\varphi_0;t_1,b_2-a_2\right)}{t_1^{\delta_1}}dt_1+h_1\int\limits_{h_1}^{b_1-a_1}\frac{\overset{1,1}{\omega}\left(\varphi_0;t_1,b_2-a_2\right)}{t_1}k(t_1)dt_1\right],$$

$$\overset{0,1}{\omega}\left(\rho\tilde{K}\varphi;0,h_2\right)\le C_2\left[h_2^{\delta_2}k(h_2)\int\limits_0^{h_2}\frac{\overset{1,1}{\omega}\left(\varphi_0;b_1-a_1,t_2\right)}{t_2^{\delta_2}}dt_2+h_2\int\limits_{h_2}^{b_2-a_2}\frac{\overset{1,1}{\omega}\left(\varphi_0;b_1-a_1,h_2\right)}{t_2}k(t_2)dt_2\right],$$

$$\overset{1,1}{\omega}\left(\rho\tilde{K}\varphi;\,h_1,\,h_2\right)\le C_{12}\left[\,h_1^{\delta_1}h_2^{\delta_2}k(h_1)k(h_2)\int_0^{h_1}\int_0^{h_2}\frac{\overset{1,1}{\omega}(\varphi_0;\,t_1,\,t_2)}{t_1^{\delta_1}t_2^{\delta_2}}dt_1dt_2+\right.$$

$$+h_1h_2^{\delta_2}k(h_2)\int_{h_1}^{b_1-a_1}\int_0^{h_2}\frac{\overset{1,1}{\omega}(\varphi_0;t_1,t_2)}{t_1t_2^{\delta_2}}k(t_1)dt_1+h_2h_1^{\delta_1}k(h_1)\int_0^{h_1}\int_0^{b_2-a_2}\frac{\overset{1,1}{\omega}(\varphi_0;t_1,t_2)}{t_2t_1^{\delta_1}}k(t_2)dt_2+$$

$$\left.+h_1h_2\int_{h_1}^{b_1-a_1}\int_{h_2}^{b_2-a_2}\frac{\overset{1,1}{\omega}(\varphi_0;t_1,t_2)}{t_1t_2}k(t_1)k(t_2)dt_1dt_2\right]$$

Zigmund ma’nosidagi baholar o‘rinli bo‘ladi.

3.2 paragrafda aralash uzluksizlik moduli bilan aniqlangan ikki o‘zgaruvchili funksiyalarning vaznli va vaznsiz umumlashgan Hölder fazolarida Volter o‘ramasi ma’nosidagi aralash integral operatorning akslantirishi o‘rganilgan.

10-teorema. *Agar* $k(x_i)\in V_{\lambda_i}$, $0<\lambda_i<1,\ i=1,2$ *va*

1) $\displaystyle\int_0^{h_1}\int_0^{h_2}\frac{\omega(\varphi;\,t_1,\,t_2)}{t_1t_2}dt_1dt_2\le C_{12}\omega(\varphi;\,h_1,\,h_2)$,

2) $\displaystyle\int_{h_1}^{b_1-a_1}\int_{h_2}^{b_2-a_2}k(t_1)k(t_2)\frac{\omega(\varphi;\,t_1,\,t_2)}{t_1t_2}dt_1dt_2\le C_{12}k(h_1)k(h_2)\omega(\varphi;\,h_1,\,h_2)$.

bo‘lsa, u holda $\tilde{H}_0^{\varpi}$ *fazoni* $\tilde{H}_0^{\varpi k}$ *fazoga* $\varpi_k(h_1,\,h_2)=h_1h_2k(h_1)k(h_2)\omega(h_1,\,h_2)$ *xarakteristikasi bilan akslantiruvchi* $\tilde{K}$ *aralash integral operator chegaralangan bo‘ladi.*

11-teorema. $\rho(x_1,\,x_2)=\psi(x_1-a_1)\psi(x_2-a_2)$, $\psi(x_i)\in W_{\mu_i}$, $k(t_i)\in V_{\lambda_i}$, $\mu_i<\lambda_i+1,\ 0<\lambda_i<1,\ i=1,2$ *bo‘lsin. Agar*

1) $\displaystyle\int_0^{h_1}\int_0^{h_2}\left(\frac{h_1}{t_1}\right)^{\max(\mu_1-1,\ 0)}\left(\frac{h_2}{t_2}\right)^{\max(\mu_2-1,\ 0)}\frac{\omega(t_1,\,t_2)}{t_1t_2}dt_1dt_2\le C_{12}\omega(h_1,h_2)$,

2) $\displaystyle\int_{h_1}^{b_1-a_1}\int_{h_2}^{b_2-a_2}\frac{\omega(t_1,\,t_2)}{t_1t_2}k(t_1)k(t_2)dt_1dt_2\le C_{12}k(h_1)k(h_2)\omega(h_1,h_2)$

shartlar bajarilsa, u holda $\tilde{H}_0^{\varpi}(\rho)$ *fazoni* $\tilde{H}_0^{\varpi k}(\rho)$ *fazoga* $\varpi_k(h_1,\,h_2)=h_1h_2k(h_1)k(h_2)\omega(h_1,\,h_2)$ *xarakteristikasi bilan akslantiruvchi* $\tilde{K}$ *aralash integral operator chegaralangandir.*

XULOSA

Umuman olganda, dissertatsiyada olingan natijalardan dissertatsiya ishining maqsadiga erishilgan deb hisoblash mumkin. Barcha asosiy natijalar yangi va shu bilan birga integral operatorlar nazariyasiga ma’lum hissa qo‘shadi. Ish aralash uzluksizlik moduli bilan aniqlangan ko‘p o‘zgaruvchili funksiyalar fazosida

Volter o‘ramasi ma’nosidagi ba’zi operatorlarning xossalarini o‘rganishga bag‘ishlangan.

Tadqiqotning asosiy natijalari quyidagilardan iborat:

1. Oddiy va aralash Hölder shartlari bilan aniqlangan ikki o‘zgaruvchili funksiyalarning vaznli va vaznsiz Hölder fazolarini akslantiruvchi Riman-Liuvill aralash kasr tartibli integral operator chegaralanganligi haqidagi teoremalar isbotlangan;

2. Aralash uzluksizlik moduli bilan aniqlangan ikki o‘zgaruvchili Riman-Liuvill aralash kasr tartibli integrallarning vaznli va vaznsiz Zigmund ma’nosidagi baholari olingan. Zigmund ma’nosidagi baholardan foydalanib, aralash uzluksizlik moduli bilan aniqlangan ikki o‘zgaruvchili funksiyalarning vaznli va vaznsiz umumlashgan Hölder fazolarini akslantiruvchi Riman-Liuvill aralash kasr tartibli integral operator chegaralanganligi haqidagi teoremalar isbotlangan;

3. Aralash uzluksizlik moduli bilan aniqlangan ikki o‘zgaruvchili Volter o‘ramasi ma’nosidagi aralash integral uchun vaznli va vaznsiz Zigmund ma’nosidagi baholari olingan;

4. Zigmund ma’nosidagi baholardan foydalanib, aralash uzluksizlik moduli bilan aniqlangan ikki o‘zgaruvchili funksiyalarning vaznli va vaznsiz umumlashgan Hölder fazolarini akslantiruvchi Volter o‘ramasi ma’nosidagi aralash integral operator chegaralanganligi haqidagi teoremalar isbotlangan.

Olingan natijalar ko‘p o‘zgaruvchili funksiyalar nazariyasida integral operatorni tadqiq qilish masalalariga qo‘llaniladi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ № PhD.03/30.06.2020.FM.70.04 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ

КАРШИНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
БУХАРСКИЙ ИНЖЕНЕРНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

МАМАТОВ ТУЛКИН ЮСУПОВИЧ

НЕКОТОРЫЕ ОПЕРАТОРЫ ТИПА ВОЛЬТЕРРОВСКОЙ СВЕРТКИ В ПРОСТРАНСТВАХ ФУНКЦИЙ НЕСКОЛЬКИХ ПЕРЕМЕННЫХ, ОПРЕДЕЛЯЕМЫХ СМЕШАННЫМ МОДУЛЕМ НЕПРЕРЫВНОСТИ

01.01.01 – Математический анализ

АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИМ НАУКАМ

Карши – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии за B2022.2.PhD/FM704.

Диссертация выполнена в Бухарском инженерно-технологическом институте.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.qarshidu.uz) и на информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Яхшибаев Махмадёр Умирович** доктор физико-математических наук (DSc), профессор
Официальные оппоненты:	**Расулов Тулкин Хусенович** доктор физико-математических наук (DSc), профессор
	Кулиев Комил Данабоевич доктор физико-математических наук (DSc), доцент
Ведущая организация:	**Навоийский государственный педагогический институт**

Защита диссертации состоится «____» ____________ 2023 года в ____ на заседании Научного совета PhD.03/30.06.2020.FM.70.04 при Каршинском государственном университете (Адрес: 180103, г. Карши, ул. Кучабаг, 17. Тел.: (+998 75) 225-34-13; факс: (+998 75) 221-00-56, e-mail: qarshidu@umail.uz). Каршинский государственный университет 2-корпус (аудитория № 202).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каршинского государственного университета (зарегистрирована за №__). (Адрес: 180103, г. Карши, ул. Кучабаг, 17. Тел.: (+998 75) 225-34-13; факс: (+998 75) 221-00-56, e-mail: qarshidu@umail.uz).

Автореферат диссертации разослан «_____» ____________ 2023 года
(протокол рассылки №_____ от «_____» ____________ 2023 года).

Б.А.Шоимкулов
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.-м.н., профессор

Ш.Д.Нодиров
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.ф.-м.н. (PhD)

А.А.Имомов
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, д.ф.-м.н. (DSc), доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Теория особых (сингулярных) интегральных операторов эффективно используется для решения различных задач современной математической физики, механики, теории функций комплексных переменных. Одной из важнейших задач в теории интегральных операторов в пространствах является задача выяснения гладкости образа в зависимости от гладкости прообраза. Один из способов тонко понять свойства гладкости функций – использование понятия обобщённой гельдеровости, формулируемой в терминах поведения модуля непрерывности.

В мире проводятся научные исследования по изучению свойств дробных интегро-дифференциальных операторов в различных пространствах. Одной из наиболее актуальных задач является изучение свойств функций многих переменных некоторых операторов типа вольтерровской свертки в пространствах Гельдера и их непосредственное распространение на случай многих переменных. Важным этапом изучения дробного интегро-дифференцирования функций в обобщенных пространствах Гельдера является получение оценок типа Зигмунда, т.е. оценка модуля непрерывности дробного интеграла (дробной производной) через модуль непрерывности исходной функции.

В нашей стране уделяется особое внимание современным направлениям механики, химической технологии и физики, имеющие научные и практические приложения фундаментальных наук. В частности, особое внимание уделяется решению актуальных задач дробного интегрирования и дробного дифференцирования. В результате развития этого направления достигаются значительные результаты в решении задач, связанных с математической физикой, механикой жидкости, математическим моделированием различных физических явлений, решением нелинейных дифференциальных уравнений. В качестве основных задач и направлений деятельности математической науки определено проведение научных исследований на уровне международных стандартов по приоритетным областях функционального анализа, математического анализа, дифференциальных уравнений, математической физики, теории вероятностей и теории динамических систем[1]. Изучение и развитие свойств многомерных интегральных операторов дробного порядка в многомерных обобщенных пространствах Гельдера приобретает все большее значение для обеспечения принятия решений.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, отраженных в Указе Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», № ПП-3682 от 27 апреля 2018 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы практического внедрения инновационных идей, технологий и проектов», № ПП-4708 от 7 мая 2020 года «О мерах по повышению качества образования и развитию научных исследований

